



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI


2022- YILDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH



2013 2014 2015 2016 2017 2018

Toshkent-2023

2018-2022- yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM)¹




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilda O'zbekiston Respublikasi YAIM hajmi joriy narxlarda 888 341,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o'sdi. YAIM deflyator indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 113,8 % ni tashkil etdi.




Yalpi ichki mahsulot (YAIM) iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

2018-2022- yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM (joriy narxlarda, trln. so'm)



¹Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2018-2021- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan.


2018-2022- yillarda O'zbekiston Respublikasi YAIMi (mlrd. AQSH dollarida)



Ma'lumot uchun: 2022- yilda AQSH dollarining so'mga nisbatan o'rtacha rasmiy kursi 11 051,2 so'm, 2021- yilda 10 610,0 so'm, 2020- yilda 10 055,8 so'm, 2019- yilda 8 839,0 so'm, 2018- yilda 8 068,9 so'mga teng bo'lgan.


Joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YAIM hajmi 80 384,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH davlatlari YAIMining o'sish (kamayish) sur'atlari², o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da



²Milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma'lumotlar asosida

2020-2022- yillarda MDH davlatlari YAIMining o‘shish (kamayish) sur‘atlari³, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da



³Milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma‘lumotlar asosida

⁴2022- yilning yanvar-sentabr oylari uchun

⁵Tojikistonning 2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun ma‘lumotlari mavjud emas

info

Ma‘lumot uchun: Jahon bankining hisob-kitoblariga ko‘ra, 2021- yilda O‘zbekiston Respublikasining xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo‘yicha YAIM hajmi 296,7 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. 2021- yilda MDHning boshqa davlatlarida XQP bo‘yicha hisoblangan YAIM hajmi quyidagicha: Rossiya Federatsiyasida – 4 793,5 mlrd. AQSH doll.; Ukrainada – 588,4 mlrd. AQSH doll.; Qozog‘istonda – 545,0 mlrd. AQSH doll.; Belarusda – 202,7 mlrd. AQSH doll.; Ozarbayjonda – 160,7 mlrd. AQSH doll.; Armanistonda – 43,5 mlrd. AQSH doll.; Tojikistonda – 41,8 mlrd. AQSH doll.; Moldovada – 40,2 mlrd. AQSH doll.; Qirg‘izistonda – 35,4 mlrd. AQSH doll.

Manba: <https://www.worldbank.org/>



YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

2018-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIMni ishlab chiqarish, mlrd. so'm

	2018	2019	2020	2021	2022
YAIM	426 641,0	532 712,5	605 514,9	738 425,2	888 341,7
<i>shu jumladan:</i>					
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	381 065,2	487 449,8	561 153,4	686 432,4	828 054,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	113 327,4	129 885,0	150 493,7	181 787,7	208 452,9
sanoat	94 266,7	134 185,8	150 275,1	186 978,2	220 704,3
qurilish	21 958,5	30 449,9	37 334,8	45 557,4	55 522,7
xizmatlar	151 512,6	192 929,1	223 049,8	272 109,1	343 374,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	26 510,1	32 179,7	36 662,8	46 750,0	57 801,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	30 095,3	36 028,6	38 313,1	47 934,3	57 776,5
boshqa xizmat tarmoqlari	94 907,3	124 720,8	148 073,9	177 424,8	227 796,1
mahsulotlarga sof soliqlar	45 575,8	45 262,7	44 361,5	51 992,8	60 287,5

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining 93,2 % ini tashkil etdi va 6,2 % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri 5,8 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi 6,8 % ni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 0,8 % ga kamaydi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri – -0,1 f.p.).



YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH


2018-2022- yillarda YAIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish (kamayish) sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)

	2018	2019	2020	2021	2022
YAIM	105,5	106,0	102,0	107,4	105,7
<i>shu jumladan:</i>					
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	105,5	106,1	102,0	107,6	106,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	100,3	103,1	102,9	104,0	103,6
sanoat	110,8	105,0	100,9	108,8	105,2
qurilish	114,3	122,9	109,5	106,8	106,6
xizmatlar	105,7	106,7	101,1	109,5	108,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	105,3	107,1	101,3	113,6	109,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	106,8	106,6	99,9	117,8	114,7
boshqa xizmat tarmoqlari	105,5	106,7	101,4	106,3	106,6
mahsulotlarga sof soliqlar	105,9	104,7	101,6	104,6	99,2



YAIM fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAIM (real YAIM)ni joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAIMga nisbati orqali hisoblanadi.

2018-2022- yillarda YAIM o'rishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



-  qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
-  tashiv va saqlash, axborot va aloqa
-  sanoat
-  boshqa xizmat tarmoqlari
-  qurilish
-  mahsulotlarga sof soliqlar
-  savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
-  YAIM

YAIM o'rishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p., sanoat tarmog'i – 1,3 f.p., qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. va xizmat ko'rsatish tarmog'i 3,2 f.p. ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YAIM 0,1 f.p. ga pasaydi.




YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

2018-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2018	2019	2020	2021	2022
I. YAIM, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>					
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	89,3	91,5	92,7	93,0	93,2
mahsulotlarga sof soliqlar	10,7	8,5	7,3	7,0	6,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29,7	26,6	26,8	26,5	25,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	30,5	33,8	33,5	33,9	33,4
sanoat	24,7	27,5	26,8	27,3	26,7
qurilish	5,8	6,2	6,7	6,6	6,7
xizmatlar	39,8	39,6	39,7	39,6	41,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,0	6,6	6,5	6,8	7,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,9	7,4	6,8	7,0	7,0
boshqa xizmat tarmoqlari	24,9	25,6	26,4	25,8	27,5

2022- yil yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 39,6 % dan 41,5 % ga, qurilish tarmog'ining ulushi 6,6 % dan 6,7 % ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 26,5 % dan 25,1 % ga, sanoatning ulushi 27,3 % dan 26,7 % ga kamaydi.

2018-2022- yillarda aholi jon boshiga YAIM (joriy narxlarda, ming so‘m)



2018-2022- yillarda aholi jon boshiga YAIMning o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)



2022- yilda aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda 24 919,7 ming so‘mni (yoki 2 254,9 AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi.



Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o‘rtacha soni 2018- yilda 32 956,1 ming kishi, 2019- yilda 33 580,4 ming kishi, 2020- yilda 34 232,1 ming kishi, 2021- yilda 34 915,1 ming kishi va 2022- yilda 35 648,1 ming kishini tashkil etgan.

Quyida keltirilgan diagrammadan ko‘rinib turganidek, 2022- yilda aholi jon boshiga YAIM hajmining real o‘shishi 2021-yilga nisbatan 3,5 % ni, 2018-yilga nisbatan esa 13,4 % ni tashkil etdi.




Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.



QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGINING YALPI QO‘SHILGAN QIYMATI

2018-2022- yillarda yaratilgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik
xo‘jaligining yalpi qo‘shilgan qiymati



2022- yil yakunlariga ko‘ra, **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida** 3,6 % (2021- yilda – 4,0 %, 2020- yilda – 2,9 %, 2019- yilda – 3,1 %, 2018- yilda – 0,3 %) darajasida ijobiy o‘sish qayd etildi.

Ushbu ijobiy o‘sish sur‘atlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,4 % (2021- yilda – 3,5 %, 2020- yilda – 2,1 %, 2019- yilda – 1,6 %, 2018- yilda – 5,7 %)ga hamda dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,8 % (2021- yilda 4,3 % ga o‘sish, 2020- yilda 3,2 % ga o‘sish, 2019- yilda – 4,8 % ga o‘sish, 2018- yilda – 4,2 % ga kamayish)ga o‘sishi bilan bog‘liq.



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGINING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

Ma'lumot uchun: dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilda natira shaklida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari quyidagicha bo'lgan:

Sabzavotlar

11 163,0 ming t.

+2,9% ↑



Mevalar

2 983,5 ming t.

+4,6% ↑



Poliz ekinlari

2 420,7 ming t.

+5,9% ↑



Don

7 994,9 ming t.

+4,7% ↑



Kartoshka

3 441,7 ming t.

+4,7% ↑



Uzum

1 760,6 ming t.

+3,9% ↑



G'o'sht (tirik vaznda)

2 726,0 ming t.

+3,4% ↑



Sut

11 629,4 ming t.

+3,2% ↑



Tuxum

8 129,3 mln. dona


+4,4% ↑





SANOAT TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2018-2022- yillarda yaratilgan sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




2022- yil yakunlariga ko'ra, **sanoat tarmog'i** qo'shilgan qiymatida 5,2 % ga o'sish kuzatilgan. Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati 2,1 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 5,3 % ga o'sishi hisobiga ta'minlandi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ida ham 12,7 % ga ijobiy o'sish qayd etildi. Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'i qo'shilgan qiymatida esa 8,0 % ga kamayish kuzatildi.




SANOAT TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2018-2022- yillarda sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati dinamikasi


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat




Sanoatning boshqa tarmoqlari




2018-2022- yillarda sanoat tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat



Sanoatning boshqa tarmoqlari



■ Hajmi, mlrd. so'm ○ O'sish (kamayish) sur'ati, % da



SANOAT TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

Ma'lumot uchun: dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilda yirik korxonalar tomonidan natira shaklida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish (kamayish) sur'atlari quyidagicha bo'lgan:

+5,9 %



Ko'mir,
ming t.
5 356,2

+4,1 %



Elektroenergiya¹,
mln.kVt.s
74 296,2

+35,3 %



Avtobuslar,
dona
1 357

-3,9 %



Portlandsement,
ming t.
11 359,5

+1,8 %



Neft,
ming t.
787,8

+91,1 %



Chaqiq tosh,
ming t.
4 484,0

-23,9 %



Traktorlar,
dona
162

+11,5 %



Avtomobil benzini,
ming t.
1 257,7

-4,0 %



Tabiiy gaz,
mln.kub.m
51 664,5

+38,6 %



Yengil avtomobillar², *dona*
328 118

+10,4 %



Shakar,
ming t.
657,6

-2,8 %



Gaz kondensati,
ming t.
1 287,1

-7,6 %



Yuk avtomobillari,
dona
4 094


¹ Kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish hajmini qo'shgan holda

² Maxsus avtomobillarni qo'shgan holda



QURILISH TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2018-2022- yillarda yaratilgan qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>O'sish su'ratlari, % da</i>
2022	55 522,7	106,6
2021	45 557,4	106,8
2020	37 334,8	109,5
2019	30 449,9	122,9
2018	21 958,5	114,3


2021- yil bilan taqqoslaganda 2022- yilda **qurilish ishlari** hajmi 6,6 % ga o'sdi. Jumladan, o'sish sur'atlari bino va inshootlar qurilishida 104,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, fuqarolik obyektlari qurilishida 102,9 % va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida 137,8 % ni tashkil etgan.




QURILISH TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2018-2022- yillarda qurilish tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymati dinamikasi


Binolar va inshootlar qurish



Fuqarolik obyektlarini qurish




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2022- yilda qurilish tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)

Binolar va inshootlar qurish



Fuqarolik obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun:

2022- yilda qurilish ishlari hajmi 130 767,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 28,4 %, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 52,7 %, jismoniy shaxslarning ulushi 18,9 % ni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd. so'm

○ O'sish (kamayish) sur'ati, % da




XIZMATLAR SOHASINING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2018-2022- yillarda yaratilgan xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati



2018-2022- yillarda xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)




- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari

2022- yil yakunlariga ko'ra, **xizmat ko'rsatish sohasining** yalpi qo'shilgan qiymati hajmi 343 374,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 8,5 % ga o'sdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari 8,9 % ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 13,1 % ga, tashish va saqlash xizmatlari 11,5 % ga, axborot va aloqa xizmatlari 24,6 % ga, boshqa xizmatlar 6,6 % ga o'sdi.




SAVDO TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2018-2022- yillarda yaratilgan savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




2018-2022- yillarda savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi dinamikasi (jamiga nisbatan % da)


Avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi (ularni ta'mirlashni qo'shgan holda)



Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)



Chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)



2022- yilda **savdo** tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va 66,1 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi 27,3 % ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi 6,6 % ni tashkil qildi.



TASHISH VA SAQLASH TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI


2018-2022- yillarda yaratilgan tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati

○ Hajmi, mlrd. so'm

↑↓ O'sish (kamayish) sur'ati, % da




2018



2019



2020



2021



2022



2022- yil yakunlariga ko'ra, **tashish va saqlash tarmog'ining** O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulush avtomobil transportiga to'g'ri keldi va 56,7 % ni tashkil etdi.

Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi 12,6 %, temir yo'l transportining ulushi 10,1 %, yordamchi transport faoliyatining ulushi 12,9 %, havo transportining ulushi 7,7 % ni tashkil etdi.





TASHISH VA SAQLASH TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2018-2022- yillarda tashish va saqlash tarmog'ining
qo'shilgan qiymati tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)



2018

2019

2020

2021

2022

56,1

53,1

57,7

58,8

56,7

Avtomobil transporti xizmati



14,8

18,2

16,5

14,8

12,6

Quvur transporti xizmatlari



11,7

11,7

13,4

10,6

10,1

Temir yo'l transporti xizmatlari



11,2

11,0

9,3

10,8

12,9

Yordamchi transport xizmatlari



6,2

6,0

3,1

5,0


7,7

Havo transporti xizmatlari




AXBOROT VA ALOQA TARMOG'INING YALPI QO'SHILGAN QIYMATI

2018-2022- yillarda yaratilgan axborot va aloqa tarmog'ining
yalpi qo'shilgan qiymati



2018-2022- yillarda axborot va aloqa tarmog'ining
yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



■ Aloqa xizmatlari ■ Boshqa xizmatlar



AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARINING YALPI QO‘SHILGAN QIYMATI

2022- yilda **axborot va aloqa tarmog‘i**ning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

Mazkur tarmoq yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida asosiy ulush aloqa xizmatlariga (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog‘i va boshqalarga) to‘g‘ri keldi va 61,7 % ni tashkil etdi.

Tarmoqda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning qolgan 38,3 foizi axborot va aloqaning boshqa tarmoqlari (nashriyot faoliyati, kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat, dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat, teleko‘rsatuv va radioeshittirish v.b.) hissasiga to‘g‘ri keldi.

2020-2022- yillarda AKT xizmatlarining yalpi qo‘shilgan qiymati, mlrd. so‘m

2020-2022- yillarda AKT xizmatlarining YAIMdagi ulushi, YAQQga nisbatan % da

13 855,9

10 696,4

8 303,5

1,7 %

1,6 %

1,5 %

2020

2021

2022

2022- yilda **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining** mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.

Tarmoqda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmining 66,5 foizi aloqa xizmatlari, 19,4 foizi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, 7,0 foizi ma‘lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, Web-portallar, 4,7 foizi kompyuterlar va aloqa uskunalari ta‘mirlash xizmatlari, qolgan 2,4 foizi dasturiy ta‘minotni chiqarish hissasiga to‘g‘ri kelgan.



KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)DA YARATILGAN YALPI QO'SHILGAN QIYMAT

2022- yilda kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan YAQQning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

46,6 %

Sanoat

11,0 %

**429 292,7
mlrd. so'm**

Qurilish

9,5 %

Xizmatlar

32,9 %

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi-da 95,9 %, qurilishda 73,6 %, xizmatlar sohasida 41,1 % va sanoatda 21,5 % ni tashkil etdi.

2022- yil yakunlari bo'yicha **kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari** tomonidan 429 292,7 mlrd. so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 51,8 % i yaratilgan. Shundan 46,6 % i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 11,0 % i sanoat, 9,5 % i qurilish tarmoqlari va 32,9 % i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.



KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)DA YARATILGAN YALPI QO'SHILGAN QIYMAT

2022- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIMda kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi (YAQQga nisbatan % da)

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

95,9 %

Sanoat

21,5 %

73,6 %

Qurilish

41,1 %

Xizmatlar



Ma'lumot uchun: 2022- yilda 90,2 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etildi. Ularning eng ko'p soni savdo (38,1 %), sanoat (18,0 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (13,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,4 %), qurilish (5,3 %), tashish va saqlash (3,7 %), axborot va aloqa (2,9 %) sohalarida tashkil etildi.




YALPI ICHKI MAHSULOTNING DEFLYATOR INDEKSI


2018-2022- yillarda YAIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)




YAIM




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish



Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Tashish va saqlash, axborot va aloqa






YALPI ICHKI MAHSULOTNING DEFLYATOR INDEKSI


2018-2022- yillarda YAIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



Boshqa xizmat tarmoqlari



Mahsulotlarga sof soliqlar



2022- yilda YAIM **deflyator indeksi** 2021- yildagi narxlarga nisbatan 113,8 % ni tashkil etdi. Tarmoqlar kesimida deflyator indeksining yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 114,3 % hamda boshqa xizmat tarmoqlarida 120,5 % qayd etildi.

Respublikaning o'rtacha darajasi (113,8 %)dan past bo'lgan deflyator indeksi savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 113,1 %, sanoatda – 112,2 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,7 %, tashish va saqlash, axborot va aloqada – 105,1 % qayd etildi.

Shu bilan birga, mahsulotlarga sof soliqlarning deflyator indeksi 116,9 % ni tashkil etgan.

YAIM deflyator indeksi iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YAIM (joriy narxlardagi hisobot davri YAIM)ning real YAIMga nisbati orqali hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2022- yilda O'zbekistonda iste'mol narxlari indeksi (INI) 2021- yilga nisbatan 111,4 % ni tashkil etdi. Tovarlar bo'yicha INI 112,8 % ni, xizmatlar bo'yicha esa 107,0 % ni tashkil etdi. Kuzatilayotgan davrda 2021- yil bilan taqqoslaganda, oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 15,1 % ga, nooziq-ovqat mahsulotlari narxi esa 9,9 % ga o'sdi.